



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
_____ -maktabgacha ta'lim tashkiloti
o'rta guruh tarbiyachisi

_____ning
takomillashtirilgan "Ilk qadam"
davlat o'quv dasturi uchinchi nashri
asosida

"Uyimizdagi kundalik buyumlar va
ularning foydasi"

mavzusida tashkillangan

FAOLIYAT
ISHLANMASI

(May oyining 1-haftasi)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli
ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

**91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**


**O'rta guruhlariga may oyi 1-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.**



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**

Guruh: O'rta guruhlar uchun

Oy mavzusi: Uyim-mening kichik olamim

Hafta mavzusi: Uyimizdagi kundalik buyumlar va ularning foydasi

Ta'limiy faoliyat maqsadlari



Ta'limiy: bolalarga mebellar haqida tushuncha berish;

Rivojlantiruvchi: tarbiyalanuvchilarning so'z boyligini oshirish, nutqini o'stirish;

Tarbiyaviy: tarbiyalanuvchilarda mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantirish. Kerakli jihozlar: AKT, o'yinchoq mebellar.

Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, mening zukko tarbiyalanuvchilarim. Bu- gungi ta'limiy faoliyatimizni Nasiba Erxonovaning "Shkafcha" nomli she'ri bilan boshlamoqchiman.



Shkafcha

Nasiba Erxonova

Shkafchamning ichida Kiyimlarim taxma-tax. Bosh kiyimim tepada, Qishkilari ham bir saf. Saranjom bo'lsa gar, Eshigin ochgim kelmas. Shuning uchun har safar Taxlayman, malol kelmas.

Tarbiyachi: - Bolalar sizlarning uyingizda ham shkaf bormi?

Bolalar: - Ha, uyimizda shkaf bor.

Tarbiyachi: - Bolalar, uyingizda yana qanday mebellar bor?

1-bola: - Yo'lakda ustki kiyimlarni ilish uchun shkaf bor.

2-bola: - Mehmonxonada stol-stullar bor.

3-bola: - Ovqatlanadigan xonada esa xontaxta bor.

4-bola: — Bolalar xonasida karavot va shkaf bor.

5-bola: - Yotoqxonadayam karavot va shkaf bor.

6-bola: - Oshxonada idishlar turadigan shkaf bor.



Tarbiyachi: - Bolalar, qarang, uyimizda juda ko'p mebellar bor ekan-a? Biz ularning beminnat xizmatidan foydalanamiz. Aytinglarchi, mebellar nimadan yasaladi?

Bolalar: - Mebellar yog'ochdan yasaladi.

Tarbiyachi: - Mebellar qanday rangda bo'ladi?

Bolalar: - Mebellar har xil ranglarda bo'ladi.





Tarbiyachi: - Bolalar, diqqatingizni monitorga qaring. Monitorda yumshoq mebellarni ko'ryapsiz, odatda, yumshoq mebellar mehmonxonaga joylashtiriladi. Yumshoq mebellar juda chiroyli, qulay bo'ladi. Bolalar, mebel yasaydigan ustalarni kim deb ataymiz?

Bolalar: - Mebel yasaydigan ustalarni mebel yasovchilar deb ataymiz.

Tarbiyachi: - Bolalar, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o'tkazamiz.

(Tarbiyachi qanday harakat qilishni ko'rsatib turadi.)

To'p, to'p, to'p.

Futbolchilar tepar to'p.

Darvozabon xo'p shoshar, Ishqibozlar qarashar. Ana, ana, gol bo'ldi, Hisob biru nol boldi.

Tarbiyachi: - Bolalar, endi men mebelni ta'riflayman, sizlar uning nimaligini topishingiz kerak.

Uning to'rtta oyog'i bor, unga o'tiramiz. (Stul)

Uning ham to'rtta oyog'i bor, bo'yi xontaxtanikidan baland, biz unga yeguliklar qo'yamiz. (Stol)

Biz unda yotib dam olamiz. (Karavot)

Biz unga kiyimlarimizni taxlab qo'yamiz. (Shkaf)

Biz unga kitoblarimizni taxlab qo'yamiz. (Javon)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, mebellarni vaqtida artib tozalab turishimiz, ularni sindirmasligimiz kerak. Chunki singan yoki eski narsani ko'rganimizda kayfiyatimiz tushib ketadi. Toza, chiroyli mebel ko'p yillar davomida xizmat qiladi.

Hozir monitorga qarang, mebellarning audio shaklda yozib olingan gaplari eshittiriladi.

(Ekranida mebellarning surat lari ko'rsatiladi, surat ortidan esa matn o'qiladi.) Aziz bolajon, senga har kuni xizmat qilishdan sira charchamayman. Faqat ovqat yuqi qo'lingni kresloga artganingda, stulni orqaga-oldinga qilib o'ynaganingda, stol ustiga ruchka bilan yozganingda xafa bo'laman. Meni avayla, men ham seni avaylayman, senga ham, uka-singillaringga ham ko'p yillar xizmat qilaman.

Tarbiyachi: - Bolalar, mebellarning iltimosini tushundingiz-a?

Bolalar: - Ha.

Tarbiyachi: - Bugungi ta'limiy faoliyatimizda faol ishtirok etganingiz uchun rahmat



Qurish-yasash va matematika markazi Qurish-yasash: «Uycha»

Maqsad: bolalar qurish-yasashga qiziqish bildiradilar, qurilish namunalarini tahlil qiladilar, geometrik shakllarni ayta oladilar, qurilish materiallaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanadilar, faoliyatlarini nutq orqali tasvirlab beradilar.

Kerakli jihoz va materiallar: qurilish materiallari, yuk mashinasi, archalar, o'yinchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Tashkilotning inshootlari tasvirlangan suratni ko'rish.
2. «Qanday qurilish?» ta'limiy o'yini.
3. Uyni qurish.
4. Bolalar qurilish qilish.
5. Qurilish boshqaruvi ishlarni tashkil etish.

Qo'shimcha: tarbiyaviy o'yinlar, o'yinchoqlar, o'yinchoqlardan iborat o'yinlar, o'yinchoqlar. Qo'shimcha taklif etishi mumkin (daraxtlar, archalar, kichik mashinalar). Qo'shimcha so'z bilan ifodalab berish.

E'tiborga molik jihati: bolalar qurilish mahoratini, qo'l mayda motorikalarini va tafakkurini rivojlantirish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalar: «Oilamiz bilan teatrga boramiz» syujetli o'yini.

Maqsad: bolalar jamoat joylari - avtobus, teatrga borish qoidalarini biladilar, she'rlarni ifodali o'yinlar bilan ifodalaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: avtobus atributlari, teatrga borish, bolalar bilan oldindan tayyorlangan pul va chiptalar.

Faoliyatning borishi:

1. Qaysi teatrga borishni rejalashtirish.
2. Kerakli narsalar va jihozlarni yig'ish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Ijro: bolalar avtobusga chiqib teatrga boradilar. Teatrga etib kelib kichik pul sotib oladilar. Spektaklni tomosha qiladilar.
5. Syujetli-rolli o'yin muhokamasi va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: bolalarga spektakl mavzusini mustaqil tanlashni taklif etish.

E'tiborga molik jihati: bolalarning dunyoqarashini rivojlantirish, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Til va nutq markazi

Suhbat: «Mening uyim»

Maqsad: bolalarda «Mening uyim», «Mening xonam» tushunchasi shakllanadi, o'z uyiga nisbatan mehr hissi tarbiyalanadi, o'z oilasida





tutgan o'zni haqida tasavvurga ega bo'ladilar, katta, keng, shinam, yorug' kabi so'zlar ishtirokida tavsiflashni biladilar. Kerakli jihoz va materiallar: turli uy ko'rinishlari (ko'p qavatli, bir qavatli, katta hovli) tasvirlangan rasmlar, o'yinchoqlar, kitoblar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlar asosida turli uy ko'rinishlarini kuzatish.
2. «Mening uyim», «Mening xonam» mavzusida bolalar hikoyasi.
3. «Mening xonamda o'ynaymiz» ta'limiy o'yini.
4. «Mening xonamda o'rnatamiz» ta'limiy o'yini.

Qo'shimcha: «Oilaviy uyjetli-rolli o'yini. Badiiy asarlarni o'qish, mulohaza ko'rib chiqish, e'tiborga molik jihati: bolalarning oilasi, uyi haqidagi hikoyalari, o'yinchoqlar, lug'at boyligini boyitish.

Til va nutq markazi:

«J» tovushi talaffuzi

Maqsad: bolalar «J» tovushi talaffuz qiladilar, «J» tovushi ishtirok etgan so'zlarni talaffuz qiladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: «J» tovushi ishtirok etgan buyumlarni tasvirlagan rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar bog'chasidagi istirok etgan buyumlarni ko'rib chiqish, sayohat qilish, hasharotlarni kuzatish.
2. Rasmlarni ko'rib chiqish, nomlanish.
3. «J» tovushi ishtirok etgan so'zlarni talaffuz qilish.
4. «J» tovushi bor so'zlarni o'ylab topish.


Qo'shimcha: artikulyatsion aparatni rivojlantirish, shovqinli na shonqinsiz tovushlarni talaffuzda mashq qildirish, fonematik eshitish.

«J» tovushi ishtirok etgan so'zlarni aniqlash.

E'tiborga molik jihati: tovushni to'g'ri talaffuz etish, berilgan topshiriqlarni to'g'ri va aniq bajarilishini nazorat qilish.

Fan va tabiat markazi:





Amaliy tajriba: Qumning xususiyatlari

Maqsad: bolalar qumning xususiyatlari bilan tanishishda davom etadilar, Hulosa qilishni biladilar, o'tkazilgan tajriba haqida fikr bildiradilar.

Kerakli jihoz va materiallar: qum, qum qoliplari, patnis, suv.

Faoliyatning borishi:

Tajribalar

1-amaliy tajriba. Qumdan turli ko'rinishli shakllar hosil qilish mumkin, quruq qumda shakllar hosil bo'lmaydi.

Qoliplarga quruq qumni solib shakllar hosil bo'ldimi?

Qoliplarga nam qumni solib shakllar hosil bo'ldimi?

Qaysi qumdan shakllar yasash osonroq aniqlash.

2-amaliy tajriba. Nam qumda shakllar yasash.

Bolalarga quruq qumda kaft izlar qoldirishni ko'rsatib berish. Izlar yaxshi ko'rinayaptimi? Qum namlantirila qoldirish osonroq bo'ladi, so'ngra nam qumda kaftlarning izini qoldirish osonroq bo'ladi. Izlar qoldimi?

Qo'shimcha: bolalar tashabbusi bilan loyning xususiyatlarini taqqoslash.

E'tiborga molik jihati: gigiena talablariga e'tibor berish.

San'at markazi

Loy ishi: «Mening uyim»

Maqsad: bolalar katta hajmli tasvirlarni yarata oladilar, loydan foydalanadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: har xil rangdagi plastilin, do'skalardan kartondan tayyorlangan uzun to'g'ri burchaklar (tom uchun), loy uchun kichik to'g'ri to'rtburchaklar.

Faoliyatning borishi:

1. Uy rasmlarini ko'rib chiqish.

2. «Qirqilgan rasmlar» ta'limiy o'yin.

3. Sxemalardan foydalangan holda uy yasash.

4. Bolalar ishlarining ko'rgazmasi.

Qo'shimcha: uylarni qurish, pazllarni terish.

E'tiborga molik jihati: topshiriqlarni to'g'ri bajarish. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.





Yakuniy qism. Markazlarda bajarilgan ishlar tahlil qilindi, otalar farzandlarining bajargan ishlari bilan tanishdilar va koʻmaklashdilar, bolalarga ragʻbatli toʻstochkalari tagʻdim etildi.

